

Karamdoshlar (Brassicaceae) oilasiga mansub noyob turlarni o`rganish

Qarshiboyeva Nasiba Haydarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Annaotatsiya: O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan karamdoshlar oilasiga mansub turlari bo`yicha jadval tuzildi. Karamdoshlar oilasiga mansub 9 tur Qizil kitobga kiritilgan. Ayrim turlariga tavsiflar berildi.

Kalit so`zlar: Qizil kitobi, karamdoshlar oilasi, kamyoblik darajasi, endem, muhofaza qilish choralari.

KIRISH:

O`simliklar olamini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. 2004-yil 3-dekabrda „Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida“ gi qonunlar 2016-yil. 21-sentabrda „O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida“ , 2018- yil 16-aprelda esa „O`rmon haqida“ gi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. Bu qonunlar barcha o`simliklar turlarini saqlab qolish, ularni asrab avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjat hisoblanadi.

Qizil kitobning 2019-yilgi nashriga ko`ra, O`zbekiston florasining yo`qolib ketish xavfi ostida qolgan 329 turi kiritilgan. Bu turlarning taqdiri bilan Respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug`ullanib kelmoqda. Ularning olib borgan kuzatishlari ayrim o`simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganligini ko`rsatmoqda.

O`zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o`simlik turlarining sonini solishtirib organilganda 2009-yilgi ma'lumotiga ko`ra 321 tur kiritilgan bo`lsa, 2019- yilgi nashrida 48 oilaga mansub 329 turdagi o`simliklar o`rin olgan

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, mamlakatimiz florasiga 1998-yilgi ma'lumotlarga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o`simlik turlari soni 301 ta bo`lgan bo`lsa, yangi nashrga 48 oilaga mansub 313 turdagi o`simliklar kiritilgan. Karamdoshlar oilasiga mansub 9 tur Qizil kitobiga kiritilgan. Jizzax viloyatining Nurota tog` tizmasida uchraydigan turlari aniqlangan. O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan karamdoshlar oilasiga mansub turlar bo`yicha jadval tuzildi. Ayrim turlarga tavsif berildi. Ularning muhogaza chora tadbirlari ko`rib chiqildi.



Mamlakatimiz florasini muhofaza qilish insoniyat uchun katta ahamiyatga ega. Insonlar tabiatdan foydalangan holda unga zarar yetkazmoqda.

KARAMDOSHLAR (*Brassiciceae*) --- bu oilaga bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik o'simliklar ba'zan chala butalar kiradi. Bu oilaning 380 turkumi 3200 dan ortiq turi mavjud. O'zbekistonda 5 ta turkumi 193 ta turi o'sadi. Bu oilaga xos belgilar gullari butga o'xshaydi. Barglari oddiy, butun yoki qirqilgan, poyada navbatlari joylashadi, yonbarglari bo'lmaydi. Gullari aktinalomorf, ikki jinsli, gulkosachasi to'rtta, gultojbargi ham to'rtta. O'simliklar asosan hasharotlar yordamida changlanadi. Changchisi 6 ta: to'rttasi uzun, ikkitasi qisqa bo'ladi va ikki doirada joylashadi. Urug'sisi bitta, ikkita mevabargning qo'shilib o'sishidan hosil bo'lgan. Mevasi, odatda, pastdan yuqoriga qarab ikkita pallaga bo'linadigan ko'p urug'li qo'zoq yoki bir urug'li chatnamaydigan yong'oqcha. Oilaning ekiladigan vakillari ko'pincha ildizmeva hosil qiladi. Sholg'om, karam, turp, rediska, xren, kabi turlari muhim sabzavot, moy, rang-bo'yoq, saqllovchi o'simliklar sifatida ishlatiladi. Yovvoyi holda o'suvchi jag'-jag', chitir, momoqaldiroq, boltiriq, qatron, kabi turlari bahor oylarida adir va tekisliklarda ko'p uchrab, muhim asal beruvchi o'simliklar hisoblanadi. Karamdoshlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati nihoyatda katta. Ulardan turli maqsadlarda, jumladan,, oziq-ovqat, yem-xashak, dori-darmon sifatida foydalaniladi. Karamdoshlar oilasining 9 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan karamdoshlar (*Brassiciceae*) oilasiga mansub turlar.

	O'zbekcha nomi	Ilmiy nomi	Kamyonlik darajasi	Uzunligi	Tarqalgan joyi	Hayotiy shakli	Muhofaza choralari
	Hisor iskandarasi	<i>Iskanderia hissarica</i> N. Busch.	1 endem	3 0 sm	Surxan vil. Tojikiston	K o'p yillik o't	M axsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
	Toshibuzar parriyasi	<i>Parraya saxifraga</i> Botsch. et Vved.	2 endem	1 0 sm	Toshkent vil. Namangan vil.	K o'p yillik o't	M axsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
	Qurama parriyasi	<i>Parraya kuramensis</i> Botsch.	1 endem	2 5 sm	Toshkent vil. Namangan vil.	K o'p yillik o't	M axsus muhofaza qilinmaydi
	Zarafshon soxta klauiyasi	<i>Pseudoclausia zerawschani</i> <i>ca</i> (Regel et Schmalh.) Botsch.	3 endem	6 0-70sm	Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlari	B ir yoki ikk yillik o't	N urota davlat qo'riqxon asida



							muhofaza qilinadi
Chi myon soxta klausiyasi	<i>Pseudoclausia tschimganica</i> (Popov ex Botsch. et Vved.) A.V. Vassil.	1 endem	3 0-50 sm ba'zan 100 sm	Toshkent vil.	I kki yillik o't	M axsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan	
Yuraksimon torol	<i>Lepidium subcordatum</i> Botsch. et Vved.	3 endem	4 0 sm	Qoraqalpog'iston, Buxoro va Navoiy viloyatlarida	K o'p yillik o't	M axsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan	
Ol'ga lepidiumi	<i>Lepidium olgae</i> (R. V. Vinogr.) Al-Shehbaz et Mumm.	2 endem	3 0-70 sm	Jizzax vil.	K o'p yillik o't	N urota davlat qo'riqxon asida muhofaza qilinadi	
Gordyagin qatroni	<i>Crambe gordjaginii</i> Sprygin et Popov.	1 endem	5 0-70 sm	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida	K o'p yillik o't	M uhofaza choralari ishlab chiqilmagan	
Vinkler spriginiyasi	<i>Spryginia winklerii</i> (Regel) Popov.	1 endem	1 0-40 sm	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida	B ir yillik o't	M uhofaza qilinmaydi	

2016 va 2019-yillarda chop etilgan Qizil kitobida Toshbuzar parriyasi (*Parrya saxifraga* Botsch. et Vved.) va Qurama parriyasi (*Parrya kuramensis* Botsch.) turlari 2009-yilgi Qizil kitobda Toshbuzar nevrolomasi (*Achoriphragma saxifraga* (Botsch. et Vved.) Sojak.) Va Qurama nevrolomasi (*Achoriphragma kuramanse* (Botsch.) Sojak) nomi bilan chop etilgan.

2009-yilda chop etilgan Qizil kitobda Ol'ga soxta klausiyasi (*Pseudoclausia olgae* (Regel et Schmalh.) Botsch.) va Ol'ga shtubendorfiyasi (*Stubendorffia olgae* R. M. Vinogr.) turlari bor edi, 2016 va 2019-yillarda bu turlar Qizil kitobga kiritilmadi. Buning sababi esa bu turlar endi muhofazaga muhtoj emas va aksincha 2009-yilda Qizil kitobda bo'lmagan Ol'ga lepidiumi (*Lepidium olgae* (R. V. Vinogr.) Al-Shehbaz et Mumm.) va Vinkler spriginiyasi (*Spryginia winklerii*, (Regel) Popov.) turlari 2016-yil va 2019-yillarda nashr etilgan Qizil kitobga kiritilgan.

Ayrim turlariga tavsif beramiz .



Zarafshon soxta klausiyasi. (*Pseudoclausia zerawschanica*) karamdoshlar (*Brassicaceae*) oilasiga mansub o'simlik. Bo'yi 60-70sm ga yetadigan oddiy, uzun hamda bezchasimon tuklar bilan qoplangan bir yoki ikki yillik o't. Yakka poyali, tubidan shoxlangan. Barglari to'mtoq, cho'ziq, patsimon bo'lakli. Gullari och binafsha rangli. Qo'zog'i tuksiz yoki tukli, yeilganda tasbehsimon. Aprel - may oylarida gullab, meva beradi.

Tarqalishi: Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarida: Nurota, Oqtog' tizmalarida, Zirabuloq tog'larida hamda Zarafshon daryosi vodiysidagi past tog'larda.

O'sish sharoiti: Tog'larning pastki va o'rta qismlarida shag'alli va mayda tuproqli joylarda, shuvoq, buta va yarim butalar orasida o'sadi.

Soni: Tabiatda yakka-yakka holda yoki 2-10 tadan to'p-to'p bo'lib uchraydi.

Ko'payishi: Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealning o'zgarish sabablari: Chorva mollarning ko'plab boqilishi va urug'ining yaxshi unib chiqmasligi sababli kamayib bormoqda. Gullari oq, uzunligi 8-9 mm

Madaniylashtirilishi: Ma'lumotlar yo'q.

Muhofaza choralari: Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza etiladi.

Olga lepidiumi (lotincha: *lepidium olgea*) karamdoshlar (*Brassicaceae*) oilasiga mansub o'simlik. Ko'p yillik o't o'simlik, ildizpoyasi tik yo'g'onlashgan. Poyasi 30-70 sam balandlikda tuksiz, ancha yo'g'on, yuqori qismi shoxlangan. Barglari tuksiz, kulrang, etli. Ildiz bo'g'zidagi barglari yirik keng tuxumsimon yoki deyarli yumaloq, pastki qismi toraygan, ko'p qanotchali bandga ega. Poyadagi barglari tuxumsimon, bandsiz sekin-asta kichrayib boradi. Gullari ko'p gulli o'simliklarning tepa qismidagi shingillarda murakkab rovak hosil qilib o'nashgan. Gullari oq, uzunligi 8-9 mm. Kosachabarglaridab 2 baravar uzun. Qo'zoqchasi ochilmaydigan, teskari tuxumsimon, uzunligi 16-20 mm, eni 8-10 mm sal qavariqli, pishganlari osilib turadi, uzun va qayrilgan meva bandida o'nashgan. Aprel va mayning boshlarida gullab, mevasi may-iyun yetiladi.

Tarqalishi: Jizzax viloyati: Nurota tog' tizmasining markaziy qismida tarqalgan.

O'sish sharoiti:

Tosh-chag'irtoshli, toshli-mayda chag'irtoshli tog'larning o'rta qismidagi shimoliy va g'arbiy yonbag'irlarda o'sadi.

Soni: Tabiatda juda kam, tarqoq holda bir necha tubdan o'nlab o'simlikkacha tarkib bo'lgan kichik-kichik papulyatsiyalar uchraydi. Umumiy soni 1000 tupga yaqin.

Ko'payishi: Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealning o'zgarish sabablari: O'simliklarning kichik maydonlarda o'sishi, sharoitda uncha moslashmaganligi, mahalliy aholi tomonidan ildizpoyalarning kovlab olinib, dorivor mahsulot sifatida ishlatilishi tufayli kamayib ketgan.

Madaniylashtirilishi: Ma'lumotlar yo'q.

Muhofaza choralari: Nurota qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.

Xulosa

1. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlarining sonini solishtirib organilganda 2009-yilgi ma'lumotiga ko'ra 321 tur kiritilgan bo'lsa, 2019- yilgi nashrida 48 oilaga mansub 329 turdagi o'simliklar o'rin olgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi (2019) ga Karamdoshlar oilasiga mansub 9 tur vakillari kiritilganligi o'rganildi. (1-jadval)

3. 2019-yildagi Qizil kitobida Toshbuzar parriyasi (*Parrya saxifraga* Botsch. et Vved.) va Qurama parriyasi (*Parrya kuramensis* Botsch.) turlari 2009-yilgi Qizil kitobida Toshbuzar nevrolomasi (*Achoriphragma saxifraga* (Botsch. et Vved.) Sojak) va Qurama nevrolomasi (*Achoriphragma kuramanse* (Botsch.) Sojak) nomi bilan chop etilgan. 2009-yilda chop etilgan Qizil kitobda Ol'ga soxta



klausiyasi (*Pseudoclausia olgae* (Regel et Schmalh.) Botsch.) va Ol'ga shtubendorfiyasi (*Stubendorffiya olgae* R. M. Vinogr) turlari kiritilgan. 2016-yil va 2019-yillarida bu turlar Qizil kitobiga kiritilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1-jild „Chinor ENK“ ekologik noshirlik kompaniyasi Toshkent 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitob 1-jild „Chinor ENK“ ekologik noshirlik kompaniyasi Toshkent 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1-jild „Chinor ENK“ ekologik noshirlik kompaniyasi Toshkent 2019.
4. Tojiboyev Sh. K. Qarshiboyeva N. H. Botanika Namangan 2016.
5. Тожибаев К. Ш. и др. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. Ташкент 2018.
6. Есонкулов А. С. Флора Зааминского государственного заповедника. Автореферат диссертации соискание ученой степени к.б.н Ташкент. 2012г.

